

# TOSHKENT HAQIQATI

1928-yil 11-dekabrda asos solingan

@haqiqatonline\_24

Haqiqat online

haqiqatonline\_

Ohangaron shahridagi 7-sonli alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabda nafaqat ta'lim sifatiga, balki o'quvchilarda mustaqil hayot kechirish ko'nikmalarini shakllantirishga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu yerda har bir bola e'tibor markazida.

▼ Inklyuziv ta'lim

## HAR BIR BOLA – E'TIBORDA



### 2 Viloyat bo'ylab

Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev BO'KA tumanini "Taraqqiyot va yetakchilik maskani"ga aylantirish bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan istiqbolli loyihalar taqdimoti bilan tanishdi. Unda tumanni kompleks rivojlantirish, sanoat zonasini tashkil etish, urbanizatsiya jarayonlarini jadallash-tirish, xizmat ko'rsatish va turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan aniq rejalar muhokama qilindi.

TOSHKENT viloyatidagi "og'ir" toifaga mansub 47 ta mahallada viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi rahbar-xodimlari hudud mas'ullari bilan hamkorlikda infratuzilmani yaxshilash orqali kambag'allik va ishsizlikni qisqartirish masalalari yuzasidan o'rganishlarni boshlashdi. Mazkur o'rganishlar asosida respublika byudjetidan 2 mlrd. so'm va viloyatdan 1 mlrd. so'm mablag'larni samarali sarflashning aniq va real taqsimoti ishlab chiqiladi.

ANGREN shahrining "Taraqqiyot" va "Ko'kterak" mahallalarida istiqomat qiluvchi 20 nafar keksa avlod vakillariga salomatliklarini tiklash uchun "Bo'ston" sanatoriysiga bepul yo'llanmalar taqdim etildi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi viloyat Kengashi raisi S.Fayziyeva, viloyat "Nuroni" jamg'armasi rahbari A.Nosirov hamda "Bo'ston" sanatoriysi direktori F.Akbarovalar ishtirok etishdi.

Viloyat Soliq boshqarmasi boshlig'i A.Inagamov ZANGIOTA tumanida joylashgan "Bek-Baraka" ixtisoslashgan savdo kompleksida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini yanada yanqindan tanishdi. Uchrashuvda soliq intizomini mustahkamlash, hisobotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etish, nazorat-kassa texnikalaridan to'g'ri va samarali foydalanish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini to'liq qonuniy asosda tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Tadbirkorlarga amaldagi soliq qonunchiligi bo'yicha tushuntirishlar, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berildi.

ТАРҚАБ  
КЕТГАН  
ТАҚДИРЛАР  
Ўхш  
маълумотларимиз  
қанчалик  
ҳимояланган?

2

ЕР БИЛАН  
ЮКСАЛГАН  
УМР

3

ҲАР НАРСА  
ҲАМ  
КЎРИНГАНИДЕК  
ЭМАС...

4

## Асрлар оша анграётган калом



▼ Форум

Баъзи сиймолар тарих саҳифаларида эмас, миллатнинг қалбида яшайди. Уларнинг номи тилга олинганда, фақат адабиёт эмас, бутун бир маънавият олами кўз олдимизда гавдаланади. Алишер Навоий ана шундай буюк зотлардан. Бугун Навоийни англаш – ўзлгимизни англаш, унинг меросига юзланиш эса келажакка маърифат билан қадам қўйиш демакдир.

4

BO'STONLIQ tumanida "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, ularning muammo va takliflarini o'rganish maqsadida "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" tashkil etildi. Samimiy va ochiq muloqot tarzida o'tgan uchrashuvda yigit-qizlarni o'ylantirayotgan muammolar o'rganilib, ularga kasbiy rivojlanishlari uchun mehnat sharoitlarini yaratish hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.

OLMALIQ shahrida milliy musiqa san'atini rivojlantirish, maqom an'alarini keng targ'ib etish hamda yosh avlodning estetik didini yuksaltirish maqsadida "Olmaliq maqom ansambli" tashkil etildi. Kuni kecha Olmaliq davlat texnika institutida mazkur ansambl so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligiga bag'ishlangan ilk konsert dasturini namoyish etdi.

Milliy gvardiya qo'mondoni, general-polkovnik Bahodir Toshmatov TOSHKENT tumanidagi mahallalarda xavfsiz muhit yaratish ishlari bilan tanishdi. O'rganish mobaynida "Uchchinor" va "Gultepa" mahallalari hududida joylashgan Qoplonbek bojxona-posti ko'zdan kechirildi. Shuningdek, "Oqibat" mahallasidagi jinoyatchilik holati bo'yicha mahalla yettilligi vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi. Muloqot davomida mavjud muammolar, ularning sabablari va bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar muhokama qilindi.

Bugungi kunda mazkur ta'lim muassasasida jami 143 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Ulardan 41 nafari uyda yakka tartibda o'qitiladi. Maktabda

hayotiga faol qo'shilishi, teng imkoniyatlarga ega bo'lishi yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi. Muassasada ta'lim ja-

gogik xizmati, "Ergoterapiya", "Fizioterapiya", "Raqsli terapiya", "Logo-ritmika" kabi yo'nalishlar bolalarning jismoniy, ruhiy va nutqiy

Joriy yilda maktabning 9-sinfni 17 nafar o'quvchi tamomlaydi. Ularning 13 nafari kasb-hunar kollejlari yonaltiriladi. 4 nafar bitiruvchining bandligini ta'minlash va turmush sharoitini yaxshilash masalasi e'tibor markazida. Ya'ni har bir o'quvchining kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topishiga jiddiy yondoshilib, amaliy yordam ko'rsatilmog'ida.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlashga nafaqat ijtimoiy himoya, balki investitsiya sifatida qaralishi kerak. Chunki to'g'ri yo'naltirilgan ta'lim va kasbiy ko'nikma kelajakda ularning mustaqil hayot kechirishi, oilasi va jamiyatga naf keltirishiga zamin yaratadi.

Yuqoridagi maktab tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, imkoniyat yaratilib, ishonch bildirilsa va to'g'ri yo'l ko'rsatilsa, har bir bola o'z salohiyatini namoyon eta oladi. Zero, bu muassasada bolalar nafaqat ta'lim olmoqda, balki mustaqil hayotga tayyorlanishmog'ida.

**Nigora O'ROLOVA,**  
"Toshkent haqiqati"  
muxbiri

## HAR BIR BOLA – E'TIBORDA



inklyuziv ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, o'tgan o'quv yilida 13 nafar o'quvchi umumta'lim maktablari integratsiya qilindi. Joriy o'quv yilida yana 8 nafar o'quvchini inklyuziv ta'limga yo'naltirish rejalashtirilgan. Bu esa bolalarning jamiyat

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

rayonlari zamonaviy talablar asosida tashkil etilgan. Sinf-lar va xizmat xonalari, sport maydonchasi o'quvchilar ehtiyojidan kelib chiqib jihozlangan. Bu yerdagi eng muhim jihat esa bolalarni kasbga yo'naltirish va ularda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish tizimi yo'lga qo'yilganidir. Jumladan, "Skil-Start" loyihasi doirasida o'quvchilar tikuvchilik o'rgatilmog'ida. Shuningdek, "Logo-profi" logopedik xizmati, "Ishonch maskani" psixologik-peda-

rivojlanishiga kompleks yondoshuvni ta'minlamog'ida.

E'tiborlisi, maktabdagi kasbiy to'garaklarda o'quvchilarga qo'shimcha daromad topish imkoniyati yaratilgan. Bu esa ularda mehnatsevar, mas'uliyatli va mustaqil bo'lish tuyg'usini shakllantirmog'ida.

– Oilamizda katta farzandman, ikki nafar ukam bor, – deydi 6-sinf o'quvchisi Nurdavlat Mavlonov. – Rasm chizish va tikishga qiziqaman. Maktabimizdagi tikuvchilik to'garagida choyshab tikib, daromad topyapman. Otanonam qo'limdan ish kelayotganini ko'rib, juda xursand bo'lishdi. Buning uchun ustozlarimga rahmat.

### ▼ Xalqaro kurgazma

**Хабарингиз бўлса, жорий йил январь ойининг сўнгги кунлари Бирлашган Араб Амирликларининг Дубай шаҳрида дунёнинг энг йирик кўргазмалари қаторида саналадиган "Gulfood-2026" халқаро озиқ-овқат маҳсулотлари ҳамда турли шарбат ва чанқовбосди ичимликлар кўргазмаси бўлиб ўтди.**

## ВИЛОЯТ КОРХОНАЛАРИ УЧУН КАТТА МАЙДОН

Ўттиз йилдан бери ташкил этиладиган ушбу кўргазмада иштирок этувчи йирик давлатлар сонини йилдан-йилга ортомқда. Бу йил 195 та мамлакатдан 8 минг 500 га яқин йирик компаниялар ўз маҳсулотлари билан қатнашишди. Ташриф буюрувчилар сонини эса 1 миллион 200 мингдан ортди.

Эътиборлиси, кўргазманинг 510 м<sup>2</sup> майдонидида "Made in Uzbekistan" ягона миллий тенди ташкил этилди ва унда 65 та маҳаллий тадбиркорлик субъектлари иштирок этди.

Айниқса, Тошкент вилоятидан қатнашган 10 га яқин етакчи корхоналар ўз маҳсулотлари орқали вилоятнинг иқтисодий қудрати ва саноат салоҳиятини яққол кўрсата олишди. Улар томонидан салқин ичимликлар, мева ва сабзавот шарбатлари, қурилган мевалар, турли консервлар маҳсулотлари, шунингдек какао, шоколад ва сершаклар қандолат маҳсулотлари тақдим этилди. Ушбу маҳсулотлар юқори сифати, замонавий ишлаб чиқариш технологиялари ва халқаро стандартларга мос қадоқланиши билан иштирокчиларда катта қизиқиш уйғотди.

– Кўргазмада халқаро ҳамкорлар билан янги алоқалар ўрнатиш, маҳсулотларимиз



сифатини жаҳон бозоридида намойиш этиш ҳамда экспорт географиясини кенгайтириш имкониятига эга бўлдиқ, – дейди Ўрта Чирчиқ туманида жойлашган "Fresh food pack" масъулияти чекланган жамият раҳбари Иқболжон Саид-аҳмедов. – Биз тақдим этган маҳсулотлар ўзининг сифати, табиийлиги ва қадоқлашдаги инновацион ечимлари билан ташкилотчилар ва харидорлар эътиборини тортиди. Кўргазмада муҳим музокаралар олиб бордик ва бир неча хорижий компаниялар билан ўзаро манфаатли келишувларга эришиш ҳаракатидамыз. Таъкидлаш керакики, мазкур корхонада тайёрланаётган маккажўхори уруғлари АҚШдан олиб келинади. Жа-



миятнинг 130 гектар ҳудуди ҳамда ёндош ҳудудлардаги фермерлар билан ҳамкорликда маккажўхори етиштириш йўлга қўйилган. Қайта ишланган маҳсулот асосан экспорт қилинади, шунингдек, маҳаллий бозорларга етказиб бериш ҳам йўлга қўйилган. Бундан ташқари, корхонада олхўри, ўрик, шафтоли, ошқовоқ билан бир қаторда қоқи маҳсулотлари ҳам қадоқланиб, хорижга экспорт қилинади.

Корхона замонавий технологиялар билан жиҳозланган бўлиб, барча ишлаб чиқариш

жараёнлари халқаро стандартларга мувофиқ амалга оширилади. Япония, Хитой, Германия тажрибаси асосида йўлга қўйилган вакуум қадоқлаш маҳсулотларнинг табиийлигини сақлайди.

Кўргазмада иштирок этган тадбиркорларнинг таъкидлашича, асосий мижозлар араб давлатларидан бўлиб, маҳсулотларимизнинг сифатига тан беришган.

Сомали давлатидан келган тадбиркор Муҳаммад Фараҳ Абдуллоҳ ўзбек павильони ҳақида илиқ фикрлар билдирди:

– Бу павильонда қандайдир ёқимли атмосфера бор, – деди у. – Биз болалар учун сифатли кекс ва ширинликлар излаямыз. Уларни Сомалига олиб кетмоқчимиз. Узоқ мuddат ҳамкорлик қиладиган ишончли етказиб берувчи қидирямыз. Мен бугунгача фақат Ўзбекистоннинг паловини билардим. Бугун эса павильондаги маҳсулотларни кўриб, жуда қизиқиб қолдим. Ўзим учун урта тадбиркорни танладим.

Уларнинг тақлифларини соҳлаштирамиз ва биттаси билан шартнома имзолаймыз.

Беш кун давом этган кўргазма бутунжаҳон савдо бозорини ўзида мужассам этди. "Gulfood-2026" доирасидаги иштирок маҳаллий ишлаб чиқарувчилар учун янги халқаро ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйиш, экспорт географиясини кенгайтириш ҳамда "Made in Uzbekistan" брендини жаҳон бозоридида янада мустаҳкамлаш йўлида муҳим қадам бўлди.

Ўз мухбиримиз

## ТАРҚАБ КЕТГАН ТАҚДИРЛАР

### Ёқуд маълумотларимиз қанчалик ҳимояланган?

**Сўнгги кунларда ижтимоий тармоқларда Ўзбекистон аҳолисининг катта қисмига тааллуқли бўлган шахсий маълумотлар ҳақлари қўлига ўтгани ҳақидаги хабарлар кенг муҳокамага сабаб бўлмоқда. Гарчи мазкур хабарлар ҳали расмий тасдиқланмаган бўлса-да, шу вазиятнинг ўзиёқ жамият учун жиддий саволларни кун тартибига олиб чиқмоқда.**

Қўпчилик "шахсий маълумот" деганда фақат паспорт рақамини тасаввур қилади. Аслида эса бу – инсоннинг рақамли ҳаёти. Исм-шариф, туғилган сана, манзил, PINFL, банк ва давлат хизматларидаги фаоллик – булар жамланса, тўлиқ "рақамли портрет" ҳосил бўлади. Бу портрет фарзанди шахслар қўлига тушса, хавф алоҳида одамга эмас, бутун жамиятга тегади.

Ҳўш, мазкур ҳолат чиндан ҳам рўй берган деб тасаввур қилсак, у қандай оқибатларга олиб бориши мумкин? Келинг, шу ҳақда фикрлашамиз.

Биламики, сўнгги йилларда давлат хизматлари жадал рақамлашди. Электрон ҳуқумат, онлайн рўйхатдан ўтиш, ягона идентификация тизимлари одамлар ҳаётини енгилаштирди. Бироқ қулайлик билан бирга хавф ҳам ортди. Катта ҳажмдаги маълумотлар бир жойда жамланса, у киберхужумчилар учун энг жозибдор нишонга айланади.

Бундан бир неча кун илгари Reddit ва бошқа платформаларда давлат органлари ахборот тизимларига тегишли дейилган маълумотлар даркнетда тарқатилгани ҳақида хаволалар пайдо бўлди.

Киберхавфсизлик маркази бу бўйича ўрганишлар олиб борилаётгани ва қўшимча маълумотлар тақдим этилишини маълум қилди. Аммо аниқ ва тушунарли изоҳ етишмаяпти. Ахборот бўшлиғи эса миш-мишларга жой очаяпти.

Ҳўш, бундай маълумотлар даркнетда сиздирилиши нимани аниқлатади ва бу қанчалик хавфли? Даркнет ўзи нима? Бизни олдинда нималар кутаяпти?

Даркнет – бу интернетнинг ёпиқ қисми. Аксар ҳолларда бузиб олинган, ўғирланган маълумотлар айнан шу ерда "савдога" қўйилади. Агар фуқароларнинг исмлари, PINFL рақамлари ва бошқа маълумотлари у ерда пайдо бўлса, бу оддий техник хато эмас – молиявий фирибгарликлар учун тайёр восита дегани.

Мутахассисларнинг қайд этишича, бундай маълумотлар орқали фирибгарлар осонгина кредит расмийлаштириши, фишинг хаволалар юбориши, банк карталарини бўшатиши мумкин. Шунинг учун илжожи борича бегона телефон рақамлардан келаятган ҳар хил СМС-кодларни ёки бошқа маълумотларни айтмаслик тавсия қилинмоқда.

Юрист, блогер Хушнудбек Худойбердиев вазият бўйича муносабат билдирди: "Маълумот сизники, кредит фирибгарники – тўлов қимдан талаб қилинади?" деган масалани ўртага ташлади:

"Айни кунда инсоннинг шахсиятига оид маълумотлар хавфсизлиги масаласи жамиятда энг ориқли муаммолардан бирига айланмоқда. Афсуски, шахсий маълумотларни сақлаш, улардан фойдаланиш ва ҳимоя қилиш бўйича тизим етарлича мустаҳкам эмаслиги исботланган.

Муаммонинг энг хавфли томони шундаки, шахсий маълумотлар тарқаб кетганидан кейин унинг оқибатлари фақат жиноят содир этган шахсга эмас, балки умуман айби бўлмаган инсонларга таъсир қилади. Агар

фирибгарлар қимнингдир шахсий маълумотларидан фойдаланиб, унинг номига кредит расмийлаштирса, амалда жавобгарлик қимнинг зиммасида бўлади?

Банклар "Кредит сизнинг номингизда олинган" деган ваз билан қарзни тўлаш мажбуриятини жабрланувчига юкламайди? Фирибгарлар тоғлиди ҳам дейлик, зарарни фирибгар қоплайди ёки давлат?! Ё бўлмаса яна оддий халқ қийналади?

Айбдорларни аниқлаш ва уларни жиноий жавобгарликка тортиш, албатта, муҳим. Бироқ улар 5-6 йилга озодликдан маҳрум этилгани билан жабрланувчининг муаммоси ҳал бўлиб қолмайди. Фуқароларнинг кредит тарихи бузилади, банклар билан муносабатлари ёмонлашади, судлар ва текширувлар ортдан вақт, маблағ ва тикланмас манба – асаб йўқотилади.

Муаммо фақат жиноятчини топишда эмас. Асосий масала – жабрланувчини ҳимоя қилиш ва зарарни қоплаш механизмларини яратишда. Агар шахсий маълумот инсоннинг

ўзи томонидан ошқор этилмаган бўлса, у айбдор эмас. Демак, масъулият ҳам тегишли ташкилотлар зиммасига тушиши шарт. Шунингдек, шахсий маълумотлар чиқиб кетган, уларни сақлаш ва ҳимоя қилиш мажбуриятини бажармаган ташкилотлар нафақат жиноий, балки молиявий жавобгарликка тортилиши керак."

Бу вазиятда энг хатарлиси ишончнинг емирилишидир. Фуқаро ўзи маълумотини давлат тизимига топширар экан, унинг хавфсизлигига ишонади. Агар шу ишонч йўқолса, рақамли ишхотларнинг ўзи ҳам маъносиз бўлиб қолади. Шу нуқтаи назардан, расмий идоралар томонидан аниқ, асосли ва ўз вақтида берилган ахборот жамиятдаги хавотирни камайитиришда ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

Афсуски, бу фақат Ўзбекистонга хос муаммо эмас. Дунёнинг энг ривожланган давлатлари ҳам йирик маълумотлар сизиб чиқиши билан тўқнаш келган. Миллионлаб фойдаланувчилар маълумотлари тарқалган ҳолатлар АҚШ, Европа ва Осиёнинг қатор техник томонлама қудратли мамлакатларида ҳам кузатилган. Фарқ шундаки, уларда бундай ҳолатлардан сўнг қонунчилик қучайтирилган, масъулият оширилган ва тизимлар қайта кўриб чиқилган. Бизга ҳам айнан шундай йўл керак.

Ҳўш, мазкур вазиятда фуқаролар нима қилиши лозим?

Бундай ҳолатларда "ҳаммаси давлатнинг иши" деб четда туриш етарли эмас. Аввало, бир хил паролларни турли хизматларда ишлатмаслик, икки босқичли тасдиқни ёқиш, шубҳали хаволалар ва номалъум манбаларга маълумот киритмаслик, шахсий маълумотларни очик майдонларда эҳтиёткорлик билан қолдириш маълумотларнинг хавфсизлигида муҳим омил саналади.

Маълумотларга қирисини чеклаш – бу ортдақ оворагарчилик эмас, балки кибержиноятчиликдан ҳимояланишнинг энг самарали усулидир.

**Нозима РАСУЛОВА,**  
"Тошкент ҳақиқати" мухбири

### ▼ Bizning yoshlar

## Maqsad harakatni mustahkamlaydi

**Har qanday davlatning ertangi kuni bilimni, tashabbuskor va maqsadli yoshlarga bog'liq. Bugun mamlakatimizda yoshlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bejiz emas. Ta'lim, ilm-fan, sport va tadbirkorlik sohaslarida yaratilayotgan keng imkoniyatlar yoshlarning o'z iqtidorini namoyon etishiga xizmat qilmoqda.**

Toshkent davlat agrar universitetida tahsil olayotgan yoshlar orasida ana shunday intilish va shijoat namunasini ko'rsatib kelayotgan talabalar biri – Ulug'bek Mirhosilovdir.

U 2023-yilda Toshkent shahridagi 210-sonli umumta'lim maktabini a'lo baholar bilan tamomlab, hozirda uni- versitetning "Agroiqtisodiyot,

logistika va xizmatlar" fakulteti iqtisodiyot ta'lim yo'nalishining 3-bosqich talabasi.

Qibray tumanida ziyolilar oilasida Ulug'bek vaqtan vaqtan samarali foydalanishni hayotiy qoidasiga aylantirgan. U o'qish bilan birga sport, jamoat ishlari va ilmiy izlanishlarni uyg'un ravishda olib boradi. O'zining yana bir yutug'i – xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirgani,



zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashga doimiy intilishidir.

Ulug'bek amaliy matematika, moliyaviy hisob, axborot texnologiyalari va dasturlash kabi yo'nalishlarda ham puxta

bilim olib, tegishli sertifikatlariga ega bo'lgan. 25 dan ortiq ilmiy maqolalari mahalliy va xalqaro anjumanlarda taqdim etilgan. Bu izlanishlar agroiqti- sodiyot sohasidagi dolzarb masalalarga bag'ishlangani bilan ahamiyatlidir.

Ulug'bek Mirhosilov universitet ichki stipendiyasi – "Erkin Shayxov" nomidagi tanlov g'olibi bo'ldi. Shuningdek, MDH davlatlari doirasida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferen- siyada "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotiga qo'shgan hisssasi" nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topilib, "Yuksak ehtirof" xalqaro ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

2025-2026-o'quv yilida esa u Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi bo'ldi. Bunday nufuzli stipendiyaga munosib bo'lish katta bilim, mehnat va izlanish natijasidir.

E'tiborlisi, Ulug'bek kabi maqsadli, izlanuvchan va fidoiy yoshlarning yutuqlari mamlakatimiz ilm-fani va taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Maqsad bilan mustahkamlangan harakat, shubhasiz, orzularni haqiqatga aylantiradi.

**I. OCHOILOV,**  
ToshDAU "Agroiqtisodiyot" kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

### Сўраган эдингиз

**– Меҳнатга лаёқатсизлик кунлари учун тўланадиган тўловдан даромад солиғи ундириладими?**

**Дилфуза ҲАКИМОВА,**  
Нурафшон шаҳри

**Саволга вилоят Адлия бошқармаси бош маслаҳатчиси Асилбек ЎРМОНОВ жавоб беради:**

– Солиқ кодексининг 377-моддасига асосан, ходимга касаллик таътиллари асосида вақтинча меҳнатга лаёқатсизлик нафақалари учун тўловлар жисмоний шахсларнинг бошқа даромадлари

турига қиради. Бу даромадлар, ўз навбатида, умумий даромадга киритилади ва белгиланган тартибда 12 фоизлик жисмоний шахслардан олинандиган даромад солиғи ундирилади.



“Тошкент ҳақиқати” ёдномаси

**Ўқувчилик йилларимда отам раҳматли “Пискент” совхозининг биринчи бўлимида баҳор ва кузда ҳайдов тракторида, ёзда эса сув чиқарадиган катта насос назоратчиси бўлиб ишлардилар. Бу насос салкам йигирма метр пастликдаги каналдан қучоққа сиғмайдиган қувур орқали юқорига дунёнинг сувини ташлаб берар, шаршара рўпарасига – сада остига қурилган чайла эса иссиқ кунда далачиларнинг нафас ростлайдиган жойи эди.**

**ЯХШИЛАРНИНГ БОЛАСИ**

Бир куни мактабдан чиқиб борсам, чайлада отам ва уч-тўрт сувчи чойлашиб ўтиришган экан.

— Шомурод ака, ҳалиги моточикдаги йигит ким эди? — деб сўради улардан бири.

— Янги агроном, — дедилар дадам. — Институтни битириб келибди. Мени айтди дерсан, Худо хоҳласа, бу йил пахта планларимиз юздан ошиб кетади.

— Шунақа денг. Жуда ишонч билан гапиряпсиз...

— Бу йигит Соиптўрақанинг ўғли экан. Отасини танирдим — яхши инсон. Бундай одамларнинг фарзандлари ишлаган жойлардаям фэйз-барак бўлади-да...

...Гапнинг пўсткаллари шуки, мақолаимиз қахрамони Раҳматхон Соиповга энг оддий ва ҳаққоний таърифни ўшанда отам айтган эканлар — яхши инсоннинг боласи, деб...

Дарҳақиқат, шундай. Кимки ерга ҳаёт бахш этса, у одамлар қалбиди ҳам боғ барпо этган бўлади. Инсон дунёда келади, яшайди ва кетади. Аммо баъзи одамлар кетар экан, ортидан экилган дараклар, обод қилинган ерлар, яхшилик кўрган одамлар, дуо қилаётган авлодлар қолади.

Раҳматхон ака қишлоқ хўжалигига тасодифан кириб қолган раҳбарлардан эмас эди. Унинг суяги далада қотган, кўли ер ҳидини билган, қалби деҳқончилик дарди билан яшаган инсон эди. Қишлоқ хўжалиги институтини битириб, “Пискент” совхозида оддий агроном сифатида иш бошлаган бу инсон кейинчалик тумандаги бир неча йиллик хўжаликларни бошқариб, уларнинг барини илгорлар сафидан жой олишига сабабчи бўлди.

**ДЕХҚОНЧИЛИК “ПРОФЕССОР”И**

1996 йили Раҳматхон ака “Пискент” хўжалиги раиси эди. У билан гапла тийёрлаш режаси 178 фоизга бажарилиб, пахта терими бошланиши арафасида учрашдик. Мақсад газетига шу хўжалик фаолияти ҳақида бир мақола тайёрлаш эди. Ҳосил зўр бўлган, Пискентда “Деҳқончилик профессори” деган ном олган бу одамдан бир дунё янгиликлар эшитиб қайтаман, деган ниятда бордим. Лекин камгап раис: “Пахта планниям бажариб, кейин гапласак бўлмайми?” деди... Нимаем келдим. Фейлини билман-ку!

Раҳматхон ака айтган пайт келди. Ғалвир сувдан кўтарилди. Энг муҳими, деярли ҳамма соҳада режалар урдаланиб, хўжалик аҳлининг юзи ёруғ бўлди. Лекин... раис билан учрашувимиз бу гап дала шийпониди эмас, касалхонада бўлди. Хижолатомус оҳангда: “Нима қилай, уч фасл сабр қилдим. Оёқ курғур қийнаверди. Буниям даштларда орттирганман. Пешонада бор экан-да”, деб қўйди. Сўнг гурунгимиз бошланди.

— Бу йил бизга Худонинг ўзи мададор бўлди, — деб гап бошлади раис. — Ҳали йилнинг тугаган, бажарган ишига қараб қўйибдиларми, юк машинаси ҳайдовчиларига, хуллас, ўримда қатнашганларнинг ҳаммасига мукофот тарихида дон улашдик. 1000 гектар ерда деҳқончилик қилиб, туманда биринчи бўлиб маррани эгалладик. Ҳосилнинг 400 тоннадан ортиқроғи



аҳолига тарқатилди. 500 тоннаси уруғликка ажратилди. Режадан оширганларга ҳосилнинг ортиги ўзларига мукофот сифатида қолдирилди.

Дарҳақиқат, 1000 гектар ердан олинган ҳосилнинг юзлаб тоннаси аҳолига тарқатилар, уруғликка ажратилар, меҳнат қилган деҳқон, албатта, рағбатлантирилар эди. Бу ерда раҳбар эмас, ҳақиқий деҳқон-адолати кўринар эди.

— Қаердаки меҳнат-

сабаб, биз ҳамон ўз имконияти-мизни тўла англаб етолмаётганимиз. Ахир энди шўро замони эмаски, “берсанг ейман” деган ақидага амал қилсак. Бугун замон бошқача. Сиёсат, тараққиёт бутунлай ўзгарди. Шу ўринда меҳнатга муносабат ҳам.

... Раҳматхон ака мен билан хайрлашар экан, кулимсираб ташқарига ишора қилди: “Қорни қаранг. Қуриб кўзим ҳам, кўнглим ҳам хайратда. Боиси, бу қорлар ўзбекнинг дала-сига ризқ бўлиб социялпти. Демак, Худо хоҳласа бу йил ҳам дастурхонимиз тўкин бўлади...”

**ЭНГ УЛУҒ ҲОСИЛ**

Раҳматхон ҳожи учун энг катта ютуқ — фарзандлари ва невараларининг камоли эди. Илмли, одобли, жамиятга фойдали инсонлар бўлиб етишган авлод — у умр бўйи қилган ҳалол меҳнатининг энг чироили самараси бўлди.

чунки у фақат бир мартаба берилади. Ундан ақл билан тўғри фойдаланиш — донолик белгиси”, дердилар.

**“ЕР УЙҚУДА БЎЛСА — ДЕХҚОН УЙҒОҚ БЎЛИШИ КЕРАК”**

Раҳматхон аканинг шиори шундай эди.

Қишнинг қирчиллама чилласида ҳам у баҳор ҳақида ўйларди. Изгирили кунларда ҳам даладани кезиб, завқлар эди. Унинг “Бу қорлар ерга ризқ бўлиб ёғяпти”, деган сўзларида ҳақиқий деҳқоннинг имони бор эди. Зеро, Ерга ишонган, Худога тавakkал қилган инсоннинг гапи бу.

У бошқарган барча хўжаликларни оғир аҳволдан илгорликка чиқара олган. Сабаби оддий: меҳнатга тўғри муносабат, инсонда манфаатдорлик, раҳбарда адолат.

ди. Дўхтирма-дўхтир югурдик. Аксига олиб, байрам кунлари ишончлироқ шифокорни топиш қийин эди...

Кўйлик ота яқинидаги (Хонобод қишлоғидаги) вилоят касалхонаси-га бордик. Шўқрим, яхши инсонлар бор экан. У ердаги шифокорлар ҳеч қандай тамасиз, шамасиз, яна байрам кунлари бўлишига қарамай фарзандимга яхши қарашди.

Янги йилнинг иккинчи куни боламни операция қилишди. Фарзандимнинг ҳаёти ҳал бўляптию, негадир юрагимни умид нури ёр-тиб турар эди. Реанимация эшиги олдида йиғлаб ўтирган аёлимнинг кўнглини кўтараман.

— Бардам бўл, аяси, Худо хоҳласа ўғлимиз операциядан яхши чиқади.

Яхшиликдан умид қилганим беркорга эмас эди. Боламни операция қилган шифокорлар — бири Раҳматхон раиснинг укаси Раҳмонхон ака,

**Ер билан юксалган умр**

У билимни энг катта бойлик деб билди. Китобни ҳаёт йўлдоши қилди. Одиллик, тўғри сўз, инсонийликни фарзандларига васият қилди. Ҳаётини бу васиятларга амал қилиб яшайди.

Кенжа ўғли Рашадхон отасини шундай хотирлайди:

— Отам учун хурсандчилик дамлари, энг аввало, оилавий ютуқлар билан боғлиқ эди. Бизнинг таълимда эришган муваффақиятларимиз отамнинг қалбини фахр ва қувончга тўлдирарди. Ҳар биримизнинг институтга кирганимиз у киши учун энг катта бахт эди. Отам билимни энг катта бойлик деб билар, бу борадаги ҳар бир ютуқни бутун оиланинг галабаси сифатида қабул қилардилар. Пенсияга чиққанларидан сўнг отам китобхонликка янада меҳр қўйдилар. Айниқса, Тоҳир Маликнинг асарларини диққат билан ўқур, ҳар бир китобдан сўнг туғилган фикр ва мулоҳазаларини эринмасдан бизга айтиб берардилар. Китоблар улар учун нафақат ҳобби, балки ҳаётнинг муҳим сабоғи эди. “Инсон ҳаётда билим олишдан тўхтамаслиги, доимо тўғри сўзлаши ва ҳар қандай вазиятда одил бўлиши керак”, дердилар ва ҳаммаша ўзлари бизга намуна эдилар.

Айниқса, бир гаплари мен учун шиор бўлиб қолган: “Инсон ҳаётдаги имкониятни қадрлаши керак, Эшитансиз, Голландиянинг қишлоқ хўжалиги ютуқлари ҳақида кўп гапиряшди. У ёқда аҳолининг атиги 5 фоизи шу соҳада банд бўлиб, бутун мамлакатни боқар экан. Бизда эса 70 фоизга яқин аҳоли қишлоқ хўжалиги соҳасида меҳнат қилади-ю, лекин деҳқончилик ва чорвачилик маҳсулотларининг нархи... Бу эътирозларнинг замирида катта ҳақиқатлар ётибди. Асосий

Раҳматхон ака шўро даври қолдик тасфаккурига берилмади. “Берсанг ейман” деган ақидани рад этди. Замон ўзгарганини, ер ҳам онгли муносабатни талаб қилишини яхши анлади.

Пискентликлар бир неча ой аввал Раҳматхон ҳожини сўнгги йўлга кузатишди. Лекин у тарбиялаган шогирдлар, фарзандлари эл-юрт хизматида, яратган боғлари ҳали-хануз одамларга ризқ бермоқда. Демак, унинг амали ҳамон давом этмоқда.

Раҳматхон ака гектарлаб боғлар яратди. Узумзорлар, мевали дарахлар, омборхоналар, қуриш цехлари — булар шунчаки иқтисодий лойиҳа эмас, балки келажак учун қилинган савобли ишлар эди.

**ЯНГИ ЙИЛ КЕЧАСИДА...**

Ҳаётининг асарларини диққат билан ўқур, ҳар бир китобдан сўнг туғилган фикр ва мулоҳазаларини эринмасдан бизга айтиб берардилар.

Ҳаётининг асарларини диққат билан ўқур, ҳар бир китобдан сўнг туғилган фикр ва мулоҳазаларини эринмасдан бизга айтиб берардилар. Китоблар улар учун нафақат ҳобби, балки ҳаётнинг муҳим сабоғи эди. “Инсон ҳаётда билим олишдан тўхтамаслиги, доимо тўғри сўзлаши ва ҳар қандай вазиятда одил бўлиши керак”, дердилар ва ҳаммаша ўзлари бизга намуна эдилар. Айниқса, бир гаплари мен учун шиор бўлиб қолган: “Инсон ҳаётдаги имкониятни қадрлаши керак, Уша янги йил оиламиз учун ташвишли келди. Катта ўғлим Шаҳзод раҳматли отам ишлаган насос ва унинг ёнидаги боғимизга кўп бориб туради. Байрам куниям борган ва канал устига қўйилган қувурдан ўтаётиб, қорда оёғи сирпаниб кетади. 15 метрлик жарга қўлаган 20 ёшли ўғлим бир неча еридан тан жароҳати олади. Айниқса, чап кўли юқори қисми суяги чўрт синиб кетади. Уша йили байрам бизга татима-

иккинчиси эса унинг кенжа ўғли Рашадхон эди.

Шунда кўнглимдан ғалати бир илиқлик ўтди. Гўё ярим аср аввал чайлада отам айтган гап яна бир бор исботини топган эди.

«Яхши инсоннинг фарзандлари ишлаган жойларда фэйз-барак бўлади...»

Рост экан. Бир пайтлар дала-ни сув билан тўйдирган қувурлар Ерга қандай ҳаёт бағишлаган бўлса, бугун ўша хонадон фарзандлари одамларга шифо сувидек ҳаёт улашмоқда. Оталари ерни обод қилган бўлса, болалари инсон тақдирини обод қилмоқда. Англаганим шу бўлдики, баъзи одамлар Ерга шунчаки ишламайди, балки Ер билан улуғланади. Уларнинг умри меҳнатда ўтади, номи эса эл ду-сида яшайди.

Раҳматхон аканинг ҳаёти ҳам худди шундай — тупроққа меҳр қўйган, одамларга яхшилик улашган ва ўша яхшиликни фарзандлари орқали яна минг қарра қилиб қайтарган умр.

Демак, инсон ерга нимани экса, тақдир ҳам унга шуни қайтарар экан. Яхшилик эканлар эса яхшилик ўради.

**Тўхтамурод ҲАСАНБОВ,**  
“Тошкент ҳақиқати”  
муҳбири

**Брифинг**

**БИР ЙИЛЛИК САРҲИСОБ**

Нурафшон шаҳрида жойлашган вилоят суди биносида оммавий ахборот воситалари ва кенг жамоатчилик вакиллари иштирокида 2025 йил якунларига бағишланган брифинг бўлиб ўтди.



Унда вилоят судининг фуқаролик, жиноят ва иқтисодий ишлар бўйича судлов ҳайъатлари, шунингдек, фуқаролик ишлари бўйича туманлараро, жиноят ишлари бўйича туман (шаҳар) судлари ҳамда туманлараро иқтисодий судлар томонидан ўтган йил давомида қўрилган ишлар бўйича батафсил маълумот берилди.

Таъкидланишича, орта қолган йилда фуқаролик ишлари бўйича вилоят ва туманлараро судлар томонидан жами 200 минг 780 та иш қўриб чиқилган. Шундан 45 минг 905 таси бўйича ҳал қилув қарори қабул қилинган, 489 таси иш юритувидан тугатилган, 5 минг 897 та даъво аризалари эса кўрмасдан қолдирилган.

Эътиборлики, ҳал қилув қарорларнинг 88,4 фоизи бўйича даъво талаблари қаноатлантирилган. Бу рақамлар фуқароларнинг бузилган ҳуқуқлари тикланаётганини, суд орқали адолат қарор топаётганини англатади. 11,6 фоиз ҳолатда даъволар рад этилгани эса ҳар бир иш қонун ва далиллар асосида ҳолис қўриб чиқилаётганини билдиради.

Шунингдек, жиноят ишлари бўйича судлар томонидан биринчи инстанция-

да 9 минг 884 нафар шахсга нисбатан 7 минг 688 та жиноят иши қўриб тугатилган.

Қайд этиш жоизки, иқтисодий адолатни таъминлаш, тадбиркорлик муҳитини барқарор сақлашда мазкур тизимнинг ўрни алоҳида. Чунки бизнес ва қонун кесишган нуқтада ҳар бир низо тезкор ва ҳолис ҳал этилмаса, ишбилармонлик фаолиятига соя тушиши табиий. Ўтган йил давомида иқтисодий ишлар бўйича ҳайъат ҳамда туманлараро иқтисодий инстанцияларга жами 76 минг 417 та даъво аризаси келиб тушгани эса бу йўналишда муносабатлар кўламини нақадар юқори эканини кўрсатади. Уларнинг 1 минг 124 таси қайтарилган, 71 минг 934 таси иш юретишга қабул қилинган, 205 таси тегишлилигига кўра бошқа судларга юборилган.

Шунингдек, брифингда вилоят маъмурий суди томонидан ҳам якунланган йил давомида фуқаролар ва давлат органлари ўртасидаги низоларни ҳал этиш, адолатни қарор топтириш борасида амалга оширилган ишлар юзасида маълумот берилди.

**Нигора ҲАҚИҚАТОВА,**  
“Тошкент ҳақиқати” муҳбири

**Мутахассис минбари**

Мамлакатимизда иқтисодиётни “соядан чиқариш”, молиявий шаффоқликни таъминлаш ва рақамли хизматларни кенг жорий этиш борасида изчил ислохотлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025

**ЯШИРИН ИҚТИСОДИЁТГА ҚАРШИ АМАЛИЙ ҚАДАМ**

**Ёқилғи бозорида нақдсиз ҳисоб-китоблар амал қилади**

Мазкур ҳужжатга мувофиқ, 2026 йил 1 апрелдан бошлаб транспорт воситаларига ёқилғи куйиш шахобчалари орқали аҳолига нефть-газ маҳсулотларини сотишда ҳисоб-китоблар фақат банк карталари ва электрон тўлов тизимлари орқали амалга оширилиши белгиланди. Бу қарор нафақат техник ўзгариш, балки соҳадаги муносабатларни тубдан янгилашга қаратилган тизимли чора ҳисобланади.

Маълумки, ёқилғи бозори — иқтисодиётнинг стратегик сегментларидан бири. Тармоқдаги маҳсулотлар реализацияси кунлик катта пул айланмасини ташкил этади. Бундай шароитда нақд пул муомаласининг юқори улуши, афсуски, ҳисоб-китобларда ноаниқликлар, реал сотув ҳажмини яшириш, солиқ базасини камай-тириш хавфи, инсон омили билан боғлиқ суистеъмол ҳолатлари каби омилларни келтириб чиқариши мумкин.

Нақдсиз ҳисоб-китоб тизими эса ҳар бир операциянинг автомат тарзда қайд этади. Бу — яширин иқтисод”га барҳам бериш, барча жараёнларни рақамли назоратга олиш деганидир.

Шаффоқлик — назорат самарадорлигининг асоси ҳисобланади. Электрон ҳисоб-китоб тизими бир қатор устунликларни таъминлайди. Ҳар бир литр ёқилғи сотуви электрон реестр-

да акс этади. Бу эса реализация ҳажмини аниқ кўриш имконини беради. Солиқ органлари билан маълумотлар интеграцияси осонлашади. Сотув ва тушум ўртасидаги тафовутлар автоматик таҳлил қилинади. Назорат текширувлари мақсадли ва таҳлилий асосда олиб борилади.

Яъни тасодифий эмас, рақамли таҳлил натижаларига таяниб иш юритилади. Инсон омили камаяди. Нақд пул билан боғлиқ субъектив ҳолатлар қисқаради. Бу эса соҳада соғлом рақобат муҳитини шакллантиришга хизмат қилади. Чунки барча иштирокчилар учун ягона ва шаффоқ қоида амал қилади.

Ўз навбатида, бу жараёнда истеъмолчи манфаати қай даражада таъминланади, деган ҳақли савол ҳам туғилади.

Нақдсиз ҳисоб-китоб тизими истеъмолчи учун ҳам қатор қўлайликлар яратди. Масалан, ҳар қандай тўлов тарихи сақланади, электрон чек тақдим этилади — бу қўшимча кешбёк ва бонуслар дегани, баҳсли вазиятларда далил базаси мавжуд бўлади, ортиқча нақд пул олиб юриш зарурати камайд ва ҳоказо.

Масалан, автомобиль эгаси бир ойда қанча ёқилғи сарфлаганини электрон тўлов тарихи орқали аниқ кўриши мумкин. Бу шах-

йил 10 декабрдаги “Нақдсиз ҳисоб-китобларни оммалаштириш ва яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони бу йўналишдаги муҳим қадамлардан биридир.

сий бюджетни режалаштиришда ҳам аҳамиятли.

Айрим тадбиркорлар дастлаб ушбу талабни қўшимча юклама сифатида қабул қилиши мумкин. Аммо амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, рақамли ҳисоб-китоб тизими узоқ муддатда биз-



нес учун ҳам фойдали. Аввало, молиявий ҳисоб-китоб тартибга тушади, бухгалтерия жараёнлари автоматлашади, ички назорат тизими кучаяди, кредит ва инвестиция олишда шаффоқ айланма муҳим омилга айланади.

Халқаро тажрибада ҳам ёқилғи савдосида нақдсиз тўлов улуши 80-90 фоиздан ошган ҳолатлар кўп. Бу бозорни тизимли ва барқарор ривожлантиришга хизмат қилади.

Албатта, 2026 йил 1 апрелга қадар барча АЕҚШларда POS-терминаллар, QR-код тўлов тизимлари, барқарор интернет алоқаси, ахборот хавфсизлиги чоралари тўлиқ йўлга қўйилиши зарур.

Инспекция томонидан ушбу

жараён босқичма-босқич мониторинг қилинади. Асосий мақсад — жазолаш эмас, балки тизимни тўғри йўлга қўйиш, қонун талабларига мувофиқ ишлашни таъминлашдир.

Умуман, юқоридаги ҳужжатнинг амалий аҳамияти 2030 йилга қадар яширин иқтисодиёт улушини сезиларли даражада қисқартириш билан боғлиқдир. Ёқилғи соҳасида нақдсиз ҳисоб-китобга ўтиш эса ана шу мақсадга хизмат қилувчи амалий механизмлардан биридир.

Шунингдек, бу давлат бюджетни барқарорлигини мустаҳкамлаш, солиқ адолатини таъминлаш, бозорда тенг рақобат муҳитини яратиш, рақамли иқтисодиёт улушини ошириши билан ҳам, айниқса, аҳамиятлидир. Энг муҳими, жамиятда қонунийлик ва молиявий интизом маданияти янада кенгрок шаклланади.

Хулоса қилиб айтганда, ёқилғи куйиш шахобчаларида нақд пулсиз ҳисоб-китобга ўтиш — оддий техник янгиллик эмас. Бу — соҳада янги ёндашув, янги маъсулият ва янги стандарт демақдир.

Зеро, шаффоқлик кучайган жойда тартиб бўлади. Тартиб бор жойда эса ривожланиш суръатлари барқарорланади.

**Фикрат КАРИМЖОНОВ,**  
“Ўзнергоинспекция” Тошкент шаҳар бошқармаси бошлиғи

# Асарлар оша амграётган калом



Бўстонлик туманида илк бор "Навоий – маърифат, илм ва инсон камолоти тимсоли" ширин остида ташкил этилган "Навоийшунослар форуми – 2026" ана шу эзгу мақсадда ўтказилди. Тошкент вилояти ҳокимлиги ҳамда қатор ҳамкор ташкилотлар ташаббуси билан ҳазрат таваллудининг 585 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-маънавий анжуман мамлакатимизда навоийшунослик йўналишидаги муҳим воқеалардан бири сифатида эътироф этилди.

Форум чуқур рамзий маънога эга тадбир билан бошланди: шоир ва ижодкорлар, таниқли олимлар ҳамда зиёлилар Эркин Воҳидов ҳайкали пойида шеърят ва маърифат кечасига жамландилар. Буюк шоирлар ижодидан ўқилган байтлар сўз санъатида бўлган чексиз ҳурматни яна бир бор намоён этди. Бу манзара гўё Навоий бошлаб берган адабий анъана Эркин Воҳидов тимсолида давом этаётганини ифодалаб, форумнинг руҳиятини очиб берди.

Шундан сўнг анжуман файз-

ли маскан – "Green Hills Resort" мажмуасида давом этди. Унда республикамизнинг етуқ навоийшунослари, адабиётшунослар олимлар, илмий муассасалар вакиллари, шунингдек, Туркия ва Эрон давлатларидан ташриф буюрган тадқиқотчилар иштирок этиб, Навоий меросининг илмий таъқиқи ва замонавий аҳамияти ҳақида фикр алмашдилар.

Баҳс-мунозараларга бой тарзда кечган мулоқотларда иштирокчилар Навоийни фақат мумтоз шоир сифатида эмас, балки миллий тафаккур мезмони, давлат ва жамият бошқарувида адолат гоёларини илгари сурган маърифатпарвар арбоб сифатида талқин қилдилар. Унинг инсонпарварлик, ҳалоллик, инсонлиги ҳақидаги қарашлари бугунги глобаллашув даврида ҳам жамият учун мустаҳкам маънавий таянч бўлиб хизмат қилаётгани алоҳида таъкидланди.

Шунингдек, сўзга чиққанлар Навоий ижодининг бадиий-эстетик қудрати, туркий адабий тил тараққиётидаги беқиёс ўрни, давлат бошқарувидаги қарашлари ва ёшлар тарбиясидаги аҳамиятига алоҳида тўхталдилар. Хорижий меҳмонлар эса Навоий ижодини

юксак баҳолаб, унинг мероси миллий чегаралар билан чекланмаслигини қайд этдилар.

Кечанинг бадиий қисмида та-

ниқли хонандалар ижросида Навоий ғазалларига басталанган мумтоз кўшиқлар янгради. Сўз ва мусиқа уйғунлигида жаранлаган бу асарлар асарлар оша яшаб келаётган Навоий каломининг бугун ҳам инсон қалбини ёритишга қодир эканини яна бир бор исботлади.

таржималарни кўпайтириш, илмий экспедициялар ва академик алмашинувларни кенгайтириш бўйича қатор таклифлар илгари сурилди. Бу ташаббуслар навоийшуносликни янги bosқичга олиб чиқиши, илмий изланишларга янги нафас бериши таъкидланди.

**Меҳридин ИБРАГИМОВ,**  
**"Тошкент ҳақиқати" мухбири**  
*Жалолуддин ЭСОНОВ*  
*олган суратлар*

## Эътиром

### Зангиотада Алишер Навоий боғи ташкил этилди

Зангиота туманида буюк мутафаккир ва сўз мулкининг султони Алишер Навоий таваллудининг 585 йиллиги муносабати билан бунёд этилган "Алишер Навоий боғи" фойдаланишга топширилди.

Шу муносабат билан ташкил этилган тадбирда туман ҳокимлиги мутасаддилари, маҳалла фаоллари, кенг жамоатчилик вакиллари, ўқитувчи ва ўқувчилар, шунингдек, адабиёт ихлосмандлари ҳамда китобхонлар иштирок этишди.

Айниқса, янги бунёд этилган боғ марказида Алишер Навоий ҳайкалининг очилиши туман аҳолиси учун маънавий озуқа берадиган совға бўлди.

Тадбирда Алишер Навоий меросининг халқимиз маънавий ҳаётидаги беқиёс ўрни, унинг бебаҳо адабий асарлари, инсонпарварлик, ватанпарварлик ва коммуналлик қорловчи юксак гоёлари ҳақида атрофича сўз юритилди.

Шунингдек, мазкур боғ келгусида ёш авлодни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш, китобхонлик маданиятини юксалтиришга ҳисса қўиш билан бирга турли маънавий-маърифий тадбирларни ташкил этиш учун файзли маскан бўлиб хизмат қилиши таъкидланди.

Ўз мухбиримиз



## СПОРТ янгиликлари

### "ҒАЗАЛКЕНТ" ПРО-ЛИГА МАСАЛАСИНИ ҲАЛ ҚИЛДИ

Футбол бўйича Бўстонликнинг "Ғазалкент" жамоаси янги мавсум Про-лигада иштирок этадиган бўлди.

Клуб матбуот хизматининг маълум қилишича, жамоа томонидан Лига кўйган талаблар тўлиқ бажарилган. 2026 йил давомида клуб ўзининг стадиони, базаси ва талаб даражасидаги футбол мактаби мавжуд бўлган лойиҳага айланиши кўзда тутилган. Режага кўра, кейинги йилларда клуб ОФК лицензиялаш жараёнига синов тариқасида жалб этилади.

Маълумот учун, 2025 йил сўнгида қайта ташкил этилган "Ғазалкент" айна кунларда Туркиянинг Анталия шаҳрида янги мавсумга ҳозирлик кўрмоқда. Асосан ёшлардан таркиб топган жамоа тайёргарлик доирасида Москванинг "Динамо-2" жамоасига қарши ўртоқлик учрашувида майдонга чиқиб, 3:2 ҳисобида ғалаба қозонди.

### ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ БИРИНЧИ

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университетида миллий спорт тури – Ўзбек жанг санъати бўйича ўсмирлар, ёшлар ва катталар ўртасида Ўзбекистон чемпионати бўлиб ўтди.

Ўзбекистон Республикаси спорт вазирилик ҳақида Ўзбек федерациясининг 2026 йил тақвим-режасига мувофиқ ташкил этилган мусобақада Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри ва барча вилоятлардан минг нафардан зиёд спортчилар "Беллашув" йўналиши бўйича куч синишишди.

Яқини натижаларга кўра, умумжамоа ҳисобидан биринчи ўринни Тошкент вилояти жамоаси кўлга киритди. Иккинчи ўрин Андижон ва Бухоро вилояти жамоаларига, учинчи ўрин эса Сирдарё ва Жиззах вилояти спортчиларига насиб этди.

Қайд этиш жоиз, мазкур мусобақа ёш тоифаларга кўра спортчиларни терма жамоаларга саралаш вазифасини ўтаб берди.

### АТЛЕТЛАРИМИЗ КУЧЛИ ТЎРТЛИҚДА!

Хитойнинг Тяньцзин шаҳрида енгил атлетика бўйича ёпиқ иншоотдаги 12-Осиё чемпионати натижасига эътибор қилинган энг кучли атлетлари иштирок этган турнирда вакилларимиз ҳам муносиб қатнашишди.

Хусусан, сўнгги кунги баҳсларда Валерия Горбатова баландликка сакрашда олтин, Сабохат Самиджонова 800 метр масофага югуриш дастурида кумуш медалини кўлга киритди.

Авалроқ, Шарифа Давронова уч хатлаб сакраш, Жонбиби Хукмова эса 400 метр масофага югуриш дастурида ғолибликни кўлга киритишган эди. Мазкур натижалардан сўнг, делегациямиз 3 та олтин ва 1 та кумуш медаль билан умумжамоа ҳисобида 4-ўринни эгаллашди.

Интернет хабарлари асосида тайёрланди

## Мулоқот

### Тошкент туманида жамоат хавфсизлигини таъминлаш, тинч ва барқарор ижтимоий муҳитни мустаҳкамлашга қаратилган "Уч авлод учрашуви" бўлиб ўтди.

Унда Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазири маслахатчиси, генерал-полковник Зокиржон Алматов, Жиззах вилояти Ички ишлар бошқармаси бошлиғи, генерал-майор Ғайрат Қодиров, Тошкент вилояти Ички ишлар бошқармаси бошлиғи маслахатчиси, генерал-майор Сайфулла Асадов, истеъфодаги генерал-майор Аҳмаджон Усмонов, меҳнат фахрийси, полковник Ҳамиджон

## УЧ АВЛОД УЧРАШУВИ



Мирзарахимов, Тошкент вилояти "Нуроний" жамғармаси раиси Абдусамат Носиров, туман ҳокимлиги, тегишли ҳуқуқ-тартибот идоралари раҳбарлари, шунингдек, "қизил" тоифага киритилган маҳалла еттилиги, ёшлар ҳамда профилактика инспекторлари иштирок этишди.

Учрашув давомида жамоат

хавфсизлигини таъминлашда оила, маҳалла ва жамоатчилик ҳамкорлигини янада кучайтириш, профилактика тадбирларни тизимли йўлга қўиш, ёшлар ўртасида жиноятчиликнинг олдини олиш ҳамда уларнинг маънавий-ахлоқий тарбиясини юксалтириш масалалари юзасидан атрофли-

ча фикр-мулоҳазалар билдирилди.

Тадбирда катта авлоднинг ҳаётини сабоқлари, ўрта авлоднинг амалий тажрибаси ва ёшларнинг фаол фуқаролик позицияси бир нуқтада туташди. Бу эса хавфсиз жамият фақат қонунлар билангина эмас, балки ҳамжиҳатлик, бефард бўлмаслик ва умумий масъулият асосида барпо этилишини яна бир бор намоён этди.

Мулоқот якунида жамоат хавфсизлигини таъминлашдаги фаоллиги ва фидойилиги учун 10 нафарга яқин профилактика инспекторлари ҳамда туман ички ишлар бўлими ташаккурнома ва эсдалик совғалари билан тақдирландилар.

Тошкент вилояти ҳокимлиги Аxbорот хизмати

## Чоршанба сабоғи

Рангпар либосдаги аёл ва эски рўдапо костюм кийган эркак Бостонда поездан тушиб қолиши ва Гарвард университетини ректори қабулига учрашув вақтини белгиламай, журъатсизгина кириб келдилар.

Котиба бу қолақ, қишлоқ кишиларнинг ректорда нима иши бор экан, дея энсасини қотирди. – Биз ректор билан кўришмоқчи эдик, – деди бояги эркак мулоимлик билан. – У киши кун бўйи банд бўлади, – деди котиба аччиқланиб. – Майли, биз кутамиз, – жавоб қилди аёл.

Котиба уларни тўрт соатча ёлғиз қолдирди. У эр-хотиннинг тоқати тоқ бўлиб қайтиб кетишларини истарди. Йўқ, улар кетишмади. Котибанинг эса жаҳли чикди. Аҳмоқона иш деб билса-да, ректорни безовта қилиб, хабар берди.

– Эҳтимол, сиз бир неча дақиқа улар билан кўришсангиз, балки қайтиб кетишар, – деди у ректорга.

Ректор чуқур хўрсинди ва рози бўлганлигининг аломати сифатида бошини қимирлатиб қўйди. Мухим шахс бўлганлиги

сабабли унда ҳар ким билан ҳам узоқ суҳбатлашиш учун вақт топилмас эди. У қабулхонасининг кўркини бузаётган рангпар либос ва эски костюмдаги жуфтликдан ижирғанди. Ректор савлат билан эр-хо-

дай қилганимизда, бу ер қабристонга ўхшаб қолган бўлар эди.

– Ох, йўқ, – деди аёл ва тезда тушунтирди. – Биз хайкал қўймоқчи эмасмиз. Биз Гарвард учун янги бино қуриб бермоқчи эдик.

## ҲАР НАРСА ҲАМ КЎРИНГАНИДЕК ЭМАС...

тин томон қадам ташлаб, уларнинг ёнига келди.

– Бизнинг Гарвардда биринчи курсда ўқийдиган ўғлимиз бор эди. У Гарвардни севарди. Бу ерда бахтиёр эди. Лекин, бир йил олдин у оламдан ўтди. Мен ва эрим унинг хотирасига кампуснинг бирор ерида ёдгорлик барпо этмоқчимиз, – деди аёл.

– Мадам, – деди ректор кўрс оҳангда, – Биз Гарвардда ўқиб, вафот этган ҳар бир киши учун хайкал қўя олмаймиз. Агар шун-

Бу гапдан ректорнинг жаҳли чикди. У яна ўша рангпар аёллар либоси ва афтода костюмга назар солди ва хитоб қилди: – Бино?! Биласизми, ўзи бино қуриш учун қанча пул керак? Гарварддаги биноларимиз етти ярим миллион доллардан ортиқроқ туради!

Аёл бир муддат сукут сақлади. Ректорнинг юзида эса мамунуният аломатлари балқиди. Эҳтимол, энди улардан кутулар. Шунда аёл эрига юзланди ва се-

кингина деди: – Университет қуриш учун бор-йўғи шунча пул қифоями? Унда нега ўз университетимизни қура қолмаймиз?

Эри бошини силқитди. Ректорнинг юзи ҳайрат ва хижолатдан бир аҳволга тушди. Мистер Леланд (темирийўл магнати) ҳамда миссис Жейн Стэнфорд ўринларидан туришди ва чиқиб кетишди. Улар Пало Альтога, Калифорнияга сафар уюштирилди ва ўша ерда Гарвард қадрига етмаган ўғиллари учун ёдгорлик ўлароқ янги илм дароғи – Стэнфорд университетига асос солдилар. Ушунда Леланд хотинига: "Калифорниянинг болалари бизнинг фарзандларимиз бўлади", – деган эди.

15 ёшида бевақт вафот этган кичик Леланд Стэнфорд номига аталган ушбу илм маскани бугунги кунда дунёдаги энг нуфузли университетлардан бирига айланган. Унинг битирувчилари Hewlett-Packard, Electronic Arts, Sun Microsystems, Nvidia, Yahoo, Cisco Systems, Silicon Graphics, TSMC ва Google каби йirik компаниялар асосчиларидир.

Муслим БУХОРИЙ таржимаси



Muassis:  
**TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI**



"Toshkent haqiqati" va "Tashkentskaya pravda" gazetalarini tahrir hay'ati:

- Zoyir MIRZAYEV (tahrir hay'ati raisi)
- Abdusamad NOSIROV
- Ummat MIRZAQULOV
- G'afurjon MUHAMEDOV
- Sayyora FAYZIYEVA
- Abduvosit ABDURAZZOQOV
- Mahmud TOIR
- Azamat MIRZAYEV
- Uskenboy ATEMOV
- Abdulla XURSANOV
- Otabek SULTONBEKOV
- Kumush EGAMBERDIYEVA
- Olimjon BEGALIYEV
- Sergey MUTIN

Bosh muharrir o'rinbosari, nashr uchun mas'ul: Suhrobjon SADIROV  
Mas'ul kotib: Alloma AZIZOVA  
Navbatchi: Mehridin IBRAGIMOV  
Ekspeditor: Behruz NURBOBOYEV

Qabulxona: (55) 520-64-95  
Bosh muharrir o'rinbosari: (55) 520-04-10  
Mas'ul kotib: (55) 520-05-10  
Bo'lim muharrirlari: (55) 520-06-20, (55) 520-04-20  
E'lonlar va hisob-kitob bo'limi: (55) 520-21-20  
e-mail: toshkenthqiqati@umail.uz

Bosishga topshirish vaqti – 20:00.  
Bosishga topshirildi – 20:30.  
Nashr ko'rsatkichi – 205.  
Buyurtma G-235.  
8 410 nusxada chop etildi.  
Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosildi. Qog'oz bichimi A–2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida  
2011-yil 12-yanvarda 03-001 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Manzil: 111500, Nurafshon shahri, Toshkent yo'li ko'chasi, 90. Toshkent shahridagi ofisimiz: Bektemir tumani, Ittifoq ko'chasi, 2. ISSN 2010-9138.

Gazeta «Toshkent haqiqati» tahririyati kompyuter markazida terildi va Tahir Mahmudxo'jayev tomonidan sahifalandi.

Haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida bosildi. Korxonaning manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.